

## **Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar va O‘zbekistonning samarali integratsiyasi**

**Xalqaro Nordik Universiteti**

**magistranti**

**Mujda Parwani**

[saaedparvoni@gmail.com](mailto:saaedparvoni@gmail.com)

Bugungi globallashuv davrida, ayniqsa pandemiyadan keyingi davr oralig‘ida ko‘plab muommolar va nizolar yuzaga kelmoqda. Ularning salmog‘ini ortib borishida savdo-sotiqda, moliya bozorida, xalqaro tijorat bozorida iqtisodiy nizolarning alanga olayotganida ko‘rishimiz mumkin.

Pandemiya keltirib chiqargan talofatlar, nafaqat mamlakatlarning ichki iqtisodiyotiga, balki jahon davlatlari iqtisodiyotiga ham kata darcha ochdi. Bu inflatsiyada, savdo-sotiqdagi o‘zgarishlarda, ishlab chiqarishda xom-ashyo yetishmasligi kabi bo‘plab sohalarga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasining Ukrainaga hujum qilishi ham dunyo davlatlari iqtisodiyotiga salbiy ta‘sir qildi. Birgina bu emas, ular o‘rtasida ko‘plab iqtisodiy nizolar keltirib chiqardi.

Hozirgi integratsiyalashuv jarayonida davlatlar o‘rtasida tashqi iqtisodiy munosabatlar ko‘lami keskin oshayotganligi, shubhasiz albatta. Negaki, har bir davlatning iqtisodiy jihatdan rivojlanishi faol tashqi iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog‘liq. Xususan, *tashqi iqtisodiy munosabatlari* deganda tovarlar, ishlar va xizmatlar, intellektual mulk obyekti, kriptovalyutalar hamda axborotga bo‘lgan mutlaq huquqlar savdosida tabiatan turlicha bo‘lgan subyektlar davlatlar, xalqaro tashkilotlar, chet davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslarining xalqaro-huquqiy, milliy huquqiy va boshqa normalar asosida savdo munosabatlariga va boshqa xildagi diplomatik aloqalarga kirishishlari tushuniladi.

Qonunda nizolarni hal qilish insoniy ziddiyatli vaziyatlarni to‘liq o‘rganishni o‘z ichiga olgan holda kengayganligi sababli bir nechta muhim vaziyatlar paydo bo‘ldi. Bularning barchasi qarama-qarshiliklar va o‘zaro

nizolarni keltirib chiqardi. Ularning ba'zilari hal qilib bo'lmas nizolarga sabab bo'ldi.

**Iqtisodiy ziddiyat** – bu iqtisodiy masalalar o'rtasidagi ziddiyatlardir. Bunga yaqqol misol sifatida, resurslar bilan mojaro hisoblanadi va tarix davomidagi urushlarning aksariyati ushbu modelga juda mos keladi. Bir tomon ikkinchisiga hujum qiladi, chunki u boshqasiga tegishli bo'lgan er, boylik yoki tabiiy resurslarni xohlaydi. Bir mamlakat boshqa davlatga o'z resurslari uchun emas, balki faqat raqobatni o'ldirish uchun, iqtisodiy hukmron bo'lishni maqsad qiladi. Iqtisodiy qarama-qarshilik elita va omma o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin. Tarixdan ham ma'lumki, bir davlatning ikkinchi davlatga hujum qilishi, avvalo, iqtisodiy hukmronlik o'rnatish, mulkini egallash, o'ziga qaram qilish uchun amalga oshirilgan. Demak, bunda ham eng asosiy jihat iqtisodiy jihatdan ustun bo'lish muhimligi ko'rsatilgan.

Mojaro faqat ikkita subyekt o'rtasida bo'lmasligi mumkin, ammo bir qator subyektlar jangovar harakatlarda ishtirok etishi mumkin.

**Iqtisodiy nizolar** – bu davlat yoki davlatlar guruhining iqtisodiy, siyosiy yoki harbiy mavqeini yaxshilash maqsadida xalqaro iqtisodiy munosabatlarga aralashuvi[1] hisoblanadi. An'anaviy urush vositalari uzoq davom etgan to'qnashuvlar paytida tobora kam samarador bo'lib borayotgan bo'lsa-da, iqtisodiy va boshqa unchalik aniq bo'lmagan urush vositalari dushman uchun samaraliroq yoki halokatli bo'lishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy nizo – bu savdo-sotiq, moliya bozori, iqtisodiy zonalar bilan bog'liq bo'lgan muommo va nizolara yig'indisi hisoblanadi. Bu yerda muhim jihat, nizoni keltirib chiqargan vosita hisoblanadi.

Bu borada, mustaqil izlanuvchilarimizdan biri, **B.M.Bahramovna** [2] vujudga kelgan iqtisodiy nizolarni xalqaro arbitraj sud orqali hal qilish kerakligini, onlayn arbitrajda nizolarni hal etish tartibini, **M.Bahodir**[3] xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi normalarni zamon talabi asosida yangilash va unda hozirgi innovatsion dunyo talablarini zabt etish keralikligi, **X. G Abdunabiyevna**[4]

arbitraj (hakamlik) sudlari–nizolarni hal qilishning eng samarali xalqaro usuli ekanligini ilgari surishgan.

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyoti tashkilotlariga qo‘shilishining shart-sharoitlari va tashqi iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish imkoniyatlari Respublika davlat mustaqilligini qo‘lga kiritishi bilan vujudga kela boshladi. Bunday vaziyatda tashqi iqtisodiy aloqalar majmuini boshqarishning o‘ziga xos tizimini shakllantirish, tashqi aloqalarni yo‘lga qo‘yish borasida qoida va tamoyillarni ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilish yo‘llarini belgilash taqozo etiladi. Respublika tashqi siyosatini amalga oshirishning asosiy tamoyillari teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik negizida qurilsa, uning qoidalari ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnoma munosabatlarida o‘zaro manfaatli aloqalar o‘rnatish, xalqaro iqtisodiy ittifoqlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirishga asoslanadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tashkil topishining birinchi bosqichi XX asrning boshlarida, ikkinchi bosqich esa 50-60 yillarga to‘g‘ri keladi. Uchinchi bosqich XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida yuz berdi. Aynan shu davrda ko‘plab mamlakatlarning hukumatlari xalqaro aloqalardagi muammolarni hal eta olmaganliklari sababli, ularni birgalikda yechishning zamonaviy usullari ustida ish olib bordilar. Olimlarning fikriga ko‘ra hozirgi kunda jahon iqtisodiy tizimida sezilarli ta’sir ko‘rsata oladigan 100 dan ziyod jahon xalqaro tashkilotlari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekistonning xalqaro mehnat taqsimoti va jahon xo‘jalik aloqalarida ishtirok etishining asosi ochiq turdagi iqtisodiyotni vujudga keltirishdir. Shu sababli respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin qisqa davr ichida 80 dan ortiq davlat bilan diplomatiya munosabatlarini o‘rnatdi, dunyoning ko‘pchilik davlatlarida diplomatiya elchixonalarini ochdi, ko‘pgina xalqaro tashkilotlar -BMT iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Xalqaro bank, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Iqtisodiy taraqqiyotga ko‘maklashuvchi tashkilot kabi boshqa xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarga a’zo bo‘lib kirdi. O‘zbekistonning jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuvi jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari

to'g'risida to'xtalib, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: "Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda, dunyo miqyosida va mintaqalararo tarqala boshlandi.

Savdo urushlari hukumatlarning o'z iqtisodlarini raqobatdosh mamlakatlar hisobiga o'z kuchini oshirishga qaratilgan tarzda tartibga solishga urinishlari natijasida yuzaga keldai. Bu, birinchi navbatda, eksportning importga nisbatan profitsitini yaratishga urinishlarni o'z ichiga oladi. Tariflar, kvotalar va valyutalarni devalvatsiya qilish orqali hukumatlar chet el tovarlarining o'z bozorlariga kirishini kamaytirishga intiladilar, shu bilan birga boshqa mamlakatlarga imkon qadar ko'proq sotishga harakat qiladilar. Bularning barchasi nizolarning boshlanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ular har qanday siyosatni amalga oshirishdi, dastlab uning ta'sirini o'rganib chiqishi kerak.

Nizoni hal qilishning muqobil usullari (ADR) arbitraj sudlari qatorida nizoni hal etishning qo'shimcha vositasi sifatida 1970-yillarda AQSHda paydo bo'lgan va 1990-yillardan boshlab, Yevropada xalqaro biznes hamjamiyati tomonidan tijorat nizolarini hal etish vositasi sifatida keng qo'llanila boshlangan[5]. Demak, Amerika siyosatida iqtisodiy nizolarni hal qilishda arbitraj sudlari muhim ro'l o'ynashi mumkinligini bilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy maydonda yuzaga keladigan nizolarni hal qilish vositasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"[6] gi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda nimani tushinilishni bilib olsak, u O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi [7]. Uning 30-moddasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Tashqi iqtisodiy faoliyat

to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish natijasida yuzaga keladigan nizolar shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi. Shartnomada nizolarni hal qilishni tartibga soluvchi qoidalar bo'lmagan taqdirda, qo'llaniladigan huquq va hal qilinadigan joy xalqaro xususiy huquqning umum e'tirof etilgan normalariga muvofiq belgilanadi". Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan nizolari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq hal qilinadi. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatning subyekti ekanligini (Konstitutsiya 17-modda[8] hisobga oladigan bo'sak, u vujudga kelgan nizolarni shartnomada ko'rsatilgan tartibda amalga oshirishi aytib o'tilgan. Shuningdek, nazarda turilmagan hollarda esa milliy qonuchilik orqali hal etilishi aytib o'tilgan.

AQSh va Xitoy o'rtasidagi ushbu savdo nizolari qisqa muddatli va uzoq muddatli kotekstda ikkala mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazishini o'rgangan ko'plab tadqiqotlar mavjud. Keyinchalik, har ikki davlat tomonidan qabul qilingan tariflar seriyasidan keyin savdo urushining oqibatlarini o'rganish uchun turli tadqiqotlar o'tkazildi. Deyarli har bir tadqiqot AQShning tariflarni oshirish maqsadi AQSh-Xitoy o'rtasidagi keng savdo defitsitini yopish ekanligini tahlil qilinadi.

Ushbu turli xil vositalar va ularning nizolarni tartibga solish uchun foydaliligini muhokama qilishdan oldin, so'nggi yigirma yil ichida birinchi navbatda Sovuq urushning tugashi bilan bog'liq bo'lgan aniq tendentsiya mavjudligini ta'kidlash kerak, 6 tartibga solish bo'yicha tobora ko'proq xalqaro sa'y-harakatlar amalga oshirildi [9].

**Birlashgan Millatlar Tashkilotining** eng qadimiy missiyalaridan ikkitasi - mos ravishda **1949** va **1956-yillarga** to'g'ri keladigan **Kashmir** (UNMOGIP) va **Suvaysh** (UNEF) bu toifaga kiradi.

O'zbekistonning global darajada amalga oshiriluvchi strategik integratsion vazifasi - bu mamlakatdagi barcha xo'jalik subyektlarining tashqi bozor bilan o'zaro aloqasini ta'minlash uchun teng huquqli va milliy manfaatlarga mos

keluvchi shart-sharoitlarni yaratish asosida uning xalqaro valyuta-moliya va savdo mexanizmlariga bevosita qo'shilishidir.

O'zbekistonning BMT, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE), Yevropa hamjamiyati, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) kabi tashkilotlar faoliyatidagi faol ishtiroki uning jahon xo'jaligiga yanada kengroq integratsiyalashuvini ta'minlaydi. O'zbekistonning transkontinental darajada amalga oshiriluvchi integratsion vazifasi - bu xalqaro transosiyo Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (EKO) doirasidagi o'zaro aloqalarni yanada kuchaytirishdan iborat. Bu tashkilot 1992-yilda tashkil etilgan bo'lib, o'z ichiga Osiyo qit'asining 10 ta davlati (Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon)ni oladi. Uning asosiy maqsadi - xo'jalikning transport, kommunikatsiyalar, sanoat, qishloq xo'jaligi, savdo, turizm, ishchi kuchi resurslarini rivojlantirish kabi sohalarida mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yishdan iborat.

O'zbekiston mintaqalararo darajada yangi mustaqil davlatlar - MDH mamlakatlari bilan integratsiyaga kirishdi. O'zbekiston birinchilar qatorida MDHni tashkil etish g'oyasini qo'llab-quvvatladi, uning tashkilotchilari tarkibiga kirdi, integratsion va kooperatsion aloqalarini mustahkamlash hamdauning Xalqaro iqtisodiy qo'mita (MEK), Davlatlararo bank (MGB), MDH Statistika qo'mitasi kabi institutsional tuzilmalarini shakllantirishda faol ishtirok etmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. The website of encyclopedia // <http://encyclopedia.uia.org/en/problem/economic-conflict>
2. Bahramovna B. M. Onlayn arbitrajda nizolarni hal etish tartibi //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2022. – C. 104-109.
3. Bahodir M. Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi normalarni zamon talabi asosida yangilash va unda hozirgi innovatsion dunyo talablarini ifoda etish masalasi // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 6. – C. 1-5.
4. Abdunabiyevna X. G. Journal of new century innovations, Arbitraj (hakamlik) sudlari–nizolarni hal qilishning eng samarali xalqaro usuli. – 2022. – T. 16. – №. 1. – C. 153-162.
5. Klaus Peter Berger, Integration of Mediation Elements in Arbitration; "hybrid and Intuitive" Mediation by international Arbitrators, (2003) 387 – p.
6. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son // <https://lex.uz/docs/-67345>
7. Abdullayeva K.N. SCIENTIFIC PROGRESS, Tashqi iqtisodiy faoliyatda smart kontraktlarning huquqiy rejimi. 2021. B.272.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.03.2019-y., 03/19/527/2706-son, 05.09.2019-y., 03/19/563/3685-son; 09.02.2021-y., 03/21/670/0089-son, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son// <https://lex.uz/docs/-20596>
9. Paul F. D, Humanitarian Intervention: Ideas in Action. 2007. Peace Operations (Cambridge: Polity 2008) P. 52.